

**7 - SINF ONA TILI TA'LIMI JARAYONIDA O'QIB TUSHUNISHGA  
DOIR MATN VA TOPSHIRIQLARNI O'RGANISH**

*Mardonova Fazilat Faxriddin qizi*

*ToshDO'TAU Ona tili va adabiyoti ta'lifi fakulteti,  
3 - kurs talabasi @Fazilat\_Mardonova.*

**Annotatsiya:** Mazkur mavzuda o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik yondashuvlar o'rjaniladi. O'qib tushunish kompetensiyasi til ta'limining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'quvchining matnni anglash, asosiy mazmunni ajrata olish, mantiqiy fikrlash va ifodali gapira olish qobiliyatini shakllantiradi.

**Kalit so'zlar:** yosh avlod, bilim, atmosfera, sayyohat, vodorod va geliy, savol - topshiriqlar, o'qish, tushunish.

**Abstract:** This topic explores didactic approaches aimed at developing students' reading comprehension skills. Reading comprehension is one of the main components of language education, forming the student's ability to understand the text, distinguish the main content, think logically, and speak expressively.

**Key words:** young generation, knowledge, atmosphere, travel, hydrogen and helium, quizzes, reading, understanding.

**KIRISH**

Jamiyat taraqqiyotida, yurt, millat taqdirida o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligi, intellektual salohiyati judayam muhim o'rin tutadi. Zero, davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda, ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir" deganlar [1].

Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash va kamol topdirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

ko‘tariladi, strategik vazifalar belgilab berildi va ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Ta’lim jarayoniga yangi pedagogik ona tilini o‘qitish va faol metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarda: ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, yangi bilimlarni mustaqil egallash qobiliyatini rivojlantirishga erishish mumkin [2].

Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham ta’lim berish jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Hozirda ta’lim sohasida rivojlangan mamlakatlar qatorida yurtimizda ham ona tili darsliklarida o‘qib tushunish, tinglab tushunish, yozish va gapirish turlari kiritilib, bolalarga shu tizim bo‘yicha darslar olib borilmoqda. Dars jarayonida badiiy, ilmiy-ommabop va hujjatli matnlar ustida ishlash orqali o‘quvchilarning matnga nisbatan tahliliy va tanqidiy munosabati rivojlanadi.

O‘qish va tushunish — bu matnni qayta ishslash, uning ma’nosini tushunish va o‘qiyotgan shaxs oldindan bilgan narsalar bilan bog‘lab anglay olish qobiliyatidir. So‘zlarning lug‘aviy ma’nosini bilish, so‘zlarning kontekstual ma’nosini bilish, matn mazmuniy bloklarining o‘zaro bog‘lanishini anglash, matn tarkibidagi parchalar asosida xulosa chiqarish, matndagi asosiy fikrini aniqlash, berilgan savollarga matn asosida javob bera olish, matnda ishlatilgan badiiy san’atlar yoki so‘z birikmalarini tanib, ajratib olish va ohangini aniqlash, muallifning maqsadi, niyati va nuqtai nazarini aniqlash va muallif to‘g‘risida xulosalar chiqarish qobiliyatlari o‘qilgan matnni samarali tushunish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar hisoblanadi.

O‘qib tushunish ko‘nikmasi orqali inson ongiga, tafakkuriga ham ta’sir etish mumkin va o‘quvchini mantiqiy fikrlashga chorlaydi. Bu borada matn yuzasidan keltiriladigan topshiriqlar ham katta rol o‘ynaydi. Chunki o‘quvchi anglamay qolgan mazmunga topshiriqlar turtki beradi va uning tushunishga ko‘maklashadi. O‘qib tushunish darslari turli bosqichlarda va metodlarga asoslangan holda olib boriladi. Misol uchun maktabda amaliyotga borganimizda biz xuddi shu tizimni ya’ni o‘qib tushunish tizimizni 7-sinf o‘quvchilarida sinab ko‘rdik. Bunda birinchi navbatda o‘qib tushunishga doir o‘quvchilarga ularning yoshiga va darajasiga to‘g‘ri keladigan va ularni qiziqtiradigan, “Atmosferamiz qochib ketmoqda” nomli matnni tanladik. Va matnga olib kirish uchun, ular matnni tahlil qilishga qiyalmasliklari

uchun topshiriqlar berib o'tdik.

Quyidagi savollarga javob berish orqali matnga tayyorlaning:

1. Atmosfera nima va u biz uchun nima ahamiyatga ega?
2. Sizningcha, atmosfera qanday omillar ta'sirida o'zgarishi yoki kamayishi mumkin?
3. Agar Yer atmosferasi yo'qolib borayotgan bo'lsa, bu inson hayotiga qanday ta'sir qiladi deb o'ylaysiz?

Quyidagi savollarni o'quvchilarga berib, ularga qisqa bo'lsada matn haqida malumot paydo bo'ldi. Ularning har biridan o'z fikrlarini so'rab , shu mavzuda qanday qiziqishlari borligi haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lib, ularga qo'ldan kelgancha mativatsiya berdik.

Keyingi bosqichda esa matnda uchrashi mumkin bo'lgan yangi so'zlarni tushuntirdik. Bunda yangi so'zlar deb matn ichidagi fazo, yerning gravitatsiya zanjiri, kosmos, koinot, Mars sayyorasi so'zlarini olib bu so'zlarni o'quvchilar bilan muhokama qilib, tushuntirib o'tdik. Bundan so'ng esa matnni o'qitib ya'ni ba'zi o'quvchilar ovoz chiqarib, ba'zilari esa ovoz chiqarmasdan o'qisa tushunishadi. Albatta bu tarafini ham inobatga olgan holatda hamma xohlagan tarzda lekin shovqin qilmasdan o'qishlarini so'radik. O'qib bo'lishgandan so'ng, matn bo'yicha asosiy g'oyani aniqlashdi, ma'lum voqealarni tartiblashga harakat qilishdi. Undan so'ng tahlil va muhokama o'tqazdik. Bu jarayonni biz savol - javoblar orqali o'quvchilarning tushunganini aniqladik.

### **1 – topshiriq. To'g'ri yoki noto'g'ri**

**Quyidagi jumlalarni o'qing va "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" deb belgilang:**

1. Yer atmosferasi butunlay barqaror va o'zgarmas holatda turadi.
2. Gazlarning atmosferadan chiqib ketishida Quyosh issiqligining roli bor.
3. Mars sayyorasida ham Yer kabi kuchli magnit maydoni mavjud.
4. Vodorod va geliy koinotdagi eng og'ir elementlar hisoblanadi.
5. Atmosferadagi ba'zi gazlar Yerdan doimiy ravishda chiqib ketmoqda.

Bu topshiriq xorij darsliklaridan olingan bo'lib, hozirgi kunda bizda ham keng qo'llanayotgan uslubdir. Bundan fo'ydalanishdan maqsad o'quvchilarni shu

yo‘nalishga tayyorlash.

### **2 - Topshiriq. Qisqa javobli savollar:**

1. Gazlar qanday sharoitda atmosferani tark etishi mumkin?
2. Marsda atmosfera tez yo‘qolishining asosiy sababi nima?

o‘qib

tushunganligining yana bir bor isbotini ko‘rish va nutqiy ko‘nikmalariga rioya qilish. Bu topshiriqlardan so‘ng o‘quvchilar matnni bemalol tahlil qila oldi. Yanada o‘qib tushunish tizimining ichiga kiradi. Shu o‘rinda dars yanada qiziqroq bo‘lishi uchun “So‘z sehri” nomli metodikani bajarishdi. Bu metodikada o‘qituvchi tomonidan berilgan matn ichidagi so‘zlar - ko‘p ma’noli so‘zlardan iborat bo‘lishi lozim. Bunda ustoz tomonidan bir so‘z tanlanib doskaga yozildi va shu so‘zning ma’nolari esa o‘quvchilar tomonidan tahlilga tortildi. Bu jarayonda o‘quchilarning barchasi darsda aktiv, hammasi o‘zining shaxsiy fikrlarini berishga oshiqishdi. Va bu biz va o‘qituvchi tomonidan ijobiy qabul qilindi.

O‘quvchilar yaxshi natijalar ko‘rsatish uchun hech bo‘lmaganda o‘qituvchi ikki maqsadga ega bo‘lish kerak: Birinchisi, o‘qituvchilar va ular ishlaydigan va foydalanadigan materiallarni tayyorlashdir. Chunki xalqaro tadqiqotlarda maktablardagi ta’lim sifati va samaradorligi o‘qituvchilarning kasbiy darajasiga bog‘liqdir. Xalqaro tadqiqotlardagi natijalarni yaxshilash uchun o‘qituvchilarni maqsadli tayyorlash va ta’lim jarayonida o‘qitish metodikasi va ustuvor tamoyillarni o‘zgartirish zarur. Buning uchun o‘qituvchilarni ta’lim jarayonida yanada muvaffaqiyatli foydalana oladigan materiallar bilan ta’minlash kerak [3].

Matnni o‘qishdi, tahlil qilishdi, topshriqlar bajarishdi va dars oxirida so‘z sehri nomli metodikani a’lo darajada bajarishdi.

**Xulosa** o‘rnida shuni aytishim mumkinki, hozirgi yoshlar uchun ko‘plab shart sharoitlar yaratib berilgan. Darsliklarning barchasi yangi. Xususan, 7- sinf ona tili darsliklari yangilanib xorij darsliklari kabi zamon talabiga javob beradigan darajada yozilgan. Birgina darslikdagi o‘qib tushunish ko‘nikmasini oladigan bo‘lsak, bu ko‘nikma o‘quvchi yoshlar uchun judayam yaxshi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘z Res Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O‘z Res xalq ta’lim tizmini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida PF-5712-sonli Farmoni.
2. SH.M.Mirziyoyev “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzlucksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida. 2020 yil 12 avgust. PQ- 4805-sonli O“zbekiston respublikasi Prezidentining qarori.
3. O`z Res Vazirlar Mahkamasinind 2018-yil 8-dekabr” Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi halqaro tatqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to`g`risida”gi 997-sonli qarori.
4. Xalqaro tadqiqotlarda o“quvchilarining tabiiy fanlar bo“yicha savodxonligini baxolash. “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi. (Tabiiy yo‘nalishdagi fan o,,qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo„llanma). Toshkent - 2019 5. PISA Released items - science. December.
5. 7 – sinf Ona tili. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. Toshkent – 2022.